

USMON AZIM SHE‘RLARIDA ESTETIK O‘ZIGA XOSLIK

Turg'unova Mahliyo

AESTHETIC ORIGINALITY IN THE POEMS OF USMAN AZIM

Turgunova Mahliyo

Anotatsiya: Ushbu maqolada Usmon Azimning lirik ijodi tahlil doirasiga tortilgan. Shoirning o‘ziga xos badiiy obraz yaratish mahorati ochib berilgan. Usmon Azim she‘riyatining jozibasi, an‘anaviy milliy ruhni zamonaviy poetiklashuvi yoritilgan. "Kuz" to‘plamidagi she‘riy misralaridagi badiiy sana‘atlar aniqlangan. Shoir dunyoni samimiy qalb bilan tasvirlashi, Shoir she‘ri aylangan dunyo kitobxon his qilib turgan dunyoning suratiga juda yaqinligi va shu bilan birga allaqanday nurlanganligi, ko‘ngilga va ruhga madad berguvchiligi tahlil etilgan.

Kalitso‘zlar: Lirikobraz, kechinma, yor, ota-ona, singil, vatan, sadoqat, bardosh, Ishonch, o‘g‘il.

Annotation: This article analyzes the lyrical work of Usman Azim. The poet's unique skill in creating an artistic image is revealed. The charm of Usman Azim's poetry, the modern poeticization of the traditional national spirit are highlighted. The artistic skills in his poetic verses in the collection "Autumn" are identified. The poet's sincere description of the world, the closeness of the poet's poem to the image of the world felt by the reader, and at the same time its radiance, support for the heart and soul are analyzed.

Keywords: Lyrical image, experience, lover, parents, sister, homeland, loyalty, endurance, Trust, son.

Badiiy asarda poetik obraz, avvalo, estetik kategoriya bo‘lib, u hissiy tajriba va borliqni idrok etish bilan o‘lchanadi. Badiiy tasvir – bu badiiy matnning ichida dunyoning haqiqatlarini alohida tushunish, his qilish imkonini beradi. Agar biz dunyoni ijodiy bilish haqida gapiradigan bo‘lsak, demak, bu dunyo o‘zgargan, subyektiv ravishda qabul qilingan bo‘ladi. Badiiy asarda obraz o‘ziga xos estetik ideal nuqtayi nazaridan haqiqatning o‘ziga xos hissiy jihatdan takrorlanishining bir usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Badiiy kechinma hayotni obrazli idrok etish ibtidosidir. So‘z san‘atkorining tafakkur kuchi natijasida badiiy asar markazini obraz(lar) egallaydi. Obraz mazmun-mohiyatiga ko‘ra estetik zavq uyg‘otish bilan bir qatorda his-tuyg‘uning ana shunday yuqumli bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Jahon adabiyotining estetik tafakkur taraqqiyotiga nazar

soladigan bo'lsak, Aristoteldan keyin borliq va uni estetik jihatdan tushunish mohiyatan ancha teranlashdi.

Darhaqiqat, kechinma – lirikaning yuragi. Uning aosini esa shoir tanlab olgan ruhiy holatlar, dardli yoki quvonchli tuyg'ular tashkil etadi. Bu holat estetik ideal tafakkur, rang, tasvir, obrazlarga ko'chadi va shoir ijodining o'ziga xos til hamda uslubini namoyon etadi. Shoir Usmon Azimning butun she'riyati bag'ridan ana shunday kechinma – shoir tomonidan tanlangan, pardoziqlangan va o'quvchiga taqdim etilgan qayg'u va quvonchlar go'yo o'q chiziq bo'lib o'tadi. Usmon Azim she'riyatining jozibasini, ko'pchilik tomonidan sevib o'qilishining sababi ham aynan shundadir. Shuning uchun Sharqda eng katta so'fiylarimiz o'zlarining kechinma va qarashlarini she'rda izhor etishgan.

Usmon Azim she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, hayotni butun ziddiyatlari bilan his etadigan lirik qahramonning g'oyat rang-barang kechinmalari ifodasini ko'ramiz. Ma'lumki, she'riyatda lirik qahramon kechinmalarida “men” shoir shaxsiyatini va uning hayot haqidagi qarashlarini umumlashtiradi. Shoir yaratgan lirik qahramon o'tmishni, o'zi yashayotgan davrni chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi.

Yuragim og'rishin sizga aytmadim

Umrning horishin sizga aytmadim

Dunyo aylanishin bilardingiz siz

Bir kuzda qolishin sizga aytmadim

Insonga qismatning ozori yo'qdir

Umr savdosining bozori yo'qdir

Sizsiz kirgim keldi bu kuzga yakka...

Endi bu kuzimning bahori yo'qdir. (262-bet)

Usmon Azimning 1995-yil Toshkentda “Sharq” nashriyotida chop etilgan “Saylanma”ga kirgan she'rlari eng sara she'rlari jamlanmasi bo'lib, unda shoir ijodiga xos bo'lgan asosiy mavzu – dunyoni va insonni mukammal ko'rish orzusida yashagan shaxs armoni butun ko'lami, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchlari, hasrat-u umidlari bilan gavdalanadi. Shoir dunyoni samimiy qalb bilan tasvirlaydi. Shoir she'ri aylangan dunyo kitobxon his qilib turgan dunyoning suratiga juda yaqin va shu bilan birga allaqanday nurlangan, ko'ngilga va ruhga madad berguvchidir.

Usmon Azim ijodida ona sadoqat, bardosh, mehr-muhabbat timsoli bo'lib, o'zbekning tabiatini mujassam etsa, ota obrazi esa mardlik, jasorat, odamiylik, halollik timsolidir.

Ona, kelganingizda...

Ona, kelganingizda

Ko'ylak olib bermadim...

Pulim yo‘q edi ona, ona
 Ona, kelganingizda
 Ochilib gaplasholmadim
 Vaqtim yo‘q edi, ona
 Ona, kelganingizda
 Kulib-kulib yurmadim
 Baxtim yo‘q edi, ona
 Ona, kelganingizda
 Yig‘lamadim o‘ksinib ...
 Haqqim yo‘q edi, ona
 Ona baxtiyor bo‘ling!
 Sizni qo‘llasin taqdir.
 Baxt o‘zi ne ona?
 Baxtsizlik nedir?¹³

Vaqt atalmish karvon shiddat illa odimlaydi, go‘yo dengiz to‘lqinlari kabi...yuqoridagi misralari orqali shoir onasini rozi qilolmagan farzand obrazini yaratdi, bolam-bolam deb o‘zligidan kechgan, ammo o‘zi uchun yashay deganda farzandidan to‘yib mehr ko‘rma gan ona o‘zbekning umumlashma obrazidir.

Shoir ijodida obrazlar vositasida milliylikning aks etishi “ota, ona, bola” uchligi bilan chambarchas bog‘liq. Shoir nazdida, bolalar millatning o‘zligini namoyon etuvchi ertaning egalaridir. Ularni g‘ururli, or-nomusli, mard va jasur qilib tarbiyalash har bir ota-onaning vazifasidir. Umuman, Usmon Azim ijodida Bola, Inson, Ota-ona, Yor, Do‘st kabi obrazlar tom ma‘nodagi milliy xarakterga, milliy qiyofaga ega bo‘lgan obrazlar sirasidan bo‘lib, ular shoirning Vatan va millat taqdiriga munosabatini, muhabbatini namoyon etadi. Xalqimizda “Onaning ko‘ngli bolada – bolaning ko‘ngli dalada” maqoli mavjud. Usmon Azim ijodida ota, ona, farzand munosabatlari nafaqat ijobiy xislatlarda, balki hayotda duch kelingan salbiy manzaralar vositasi bilan ham tasvir etilgan. Shoirning “Buyumlar haqida ballada” she‘rida dunyo tashvishlariga chalg‘igan farzand o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, onasini ham unuta yozgani quyidagi diolog asosiga qurilgan she‘rda yaqqol ifoda etilgan:

– Keldingmi?
 – O, bolam, senda gapim bor...
 Birgina so‘zingni intizor kutdim!
 – Shoshyapman... Do‘kondan mol olmoq darkor...
 Senga nega keldim? Unutdim... (6-bet)

¹³ t.me/UsmonAzimijodi

Shoir ijodida tarixiy shaxslar hayotidan hikoya etuvchi tarixiy obrazlar borki, ular go'yo bizni tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. "Mirzo Ulug'bekning o'kinchi", "Mo'min Mirzoning so'nggi qo'shig'i", "Turdi Farog'iy", "Abdulla Qodiriy", "Usmon Nosirning so'nggi tushi", "Oybeking so'nggi she'ri", "Maqsud Shayxzoda" kabi she'rlari orqali shoirning o'chmas tariximiz zarvaraqalaridagi xotiralarni chuqur anglagan faylasuf timsolida ko'ramiz:

Dardimni aytolmayman...

Xalq, tingla bir band ash'or:

"Men ham ilkimda qilich,

Ovlaganman yo'lbars, she'r!

Dushman muzaffar o'ldi,

Ag'yor falak qildi yer..."

Meni asir oldilar...

Bo'g'zimda erk qo'shig'i!(12-bet).

Bu o'rinda Mo'min Mirzoning she'ri erkinroq bir tarzda keltirilgan. Muzaffar so'zi iyyom san'ati asosida ikki ma'no anglatadi: muzaffar – g'olib, Muzaffar – Mo'min Mirzoni hibsga olgan amakisi Muzaffar Husaynning ismi hamdir.

Chuqur mazmunni yuzaga chiqmog'i uchun go'zal shakl, nafis poetika lozimligini unutmaslik lozim. Shunday ekan mazmunning ifodasi bo'lgan shaklni, jozibani chetlab o'tishning imkoni yo'q. Shoirning "Kuz "to'plamidagi she'rlarning poetik xususiyatlari, shakliy jihatlariga biroz to'xtalamiz.

To'plamdagi she'rlarda tashbeh, jonlantrish, so'z qo'llash, shuningdek satrlarni joylashuvdagi jozibani ko'rasiz.

Masalan, siz yalanagayoq, yalangbosh degan so'zlarni ko'p eshitgansiz bular oddiy so'z hisob. Ammo biror joyda "Yalangyurak" degan so'zni eshitganmisiz? Kam juda kam eshitgansiz. Lekin Usmon Azim ijodi uchun bunday yangi so'z, topilmalarni qo'llash odatiy holdir. Bir she'rida yulduzlari charaqlab turgan osmonni "Yulduzyonar" gulshan desa, boshqa bir o'rinda moviy osmonni "havo daryo" deydi. Ijodkor tuyg'ulari nechog'lik kuchli, nigohi o'tkir, dardlari salmoqli, tili biyron bo'lsa, o'quvchi uning asarlariga shunchalik qattiq beriladi. Buning ustiga, badiiy asarlarning o'ziga xos musiqiyligi, ohangdorligi, so'zlarning mahorat ila ishlatilishi tufayli paydo bo'lgan holat, ijodkorning dunyoni tasvirlashdagi o'ziga xosligi kitobxonni rom etadi.

Badiiy ijodni o'qishda, baholashda, o'rganishda va tahlil etishda, odatda, ikki xil qarash ustuvorlik qiladi. Birinchisi, yaratilgan asarning davr va zamonga hamohangligi, jamiyat manfaatlariga va kitobxonning hayotiy tajribasiga, qiziqishiga ko'ra; ikkinchisi, o'quvchining hayotdagi va san'atdagi go'zallik tuyg'ulari talqinidan kelib chiqib, hissiy-

emotsional, ruhiy-estetik tarafdin yondashiladi. Usmon Azim ijodi davr ruhi va zamonga hamohangligi, shuningdek, kitobxonga ruhiy-estetik zavq berish bilan birga o'quvchini hayot haqidagi qarashlarini shakllantira oladi.

Badiiylik inson faoliyatining shunday turiki, u o'zining ijod mahsullarini (ularning estetik bir butunligi) mukamallik darajasining "chegara" sini taxmin qila oladi. Kant iborasi bilan aytganda, bu faoliyatni "chetga surish mumkin emas". Boshqacha aytganda, san'at (faoliyatning sohasi), shu qatorda so'z san'ati estetik munosabatlarning yuqori shakli hisoblanadi. M.M.Baxtinning yozishicha, "Tabiatni estetik mushohada qilish, afsonalardagi, dunyoqarashlardagi estetik jihatlar chalkash, betakror, sun'iydir. Estetika faqat san'atdagina o'zini bor holicha namoyon eta oladi"¹⁴.

Badiiy asar, poetik obrazlar orqali ijodkor nimani ifodalaydi, borliqni qay yo'sinda tasvirlaydi-bu ikki jihat o'z ahamiyati bilan bir-biridan muhim, bir-biridan mas'uliyatli. Chunki adabiyotda badiiy obraz orqali inson xarakteri, tashqi qiyofasi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Binobarin, "obrazaning g'oyaviy-ma'naviy qimmatini ham uning badiiy-estetik darajasi bilan, niyatning san'at nuqtayi nazaridan qay tarzda ijro etilgani bilan belgilanadi"¹⁵.

Umuman olganda, badiiy adabiyot obrazlar orqali hayotdagi ham oddiy, ham ibratli faktlarni xoh tabiiy, xoh favqulodda hodisalarni tarqoqlik yoki mavhumlik holatidan o'zaro mutanosib, uyg'un holatga keltiradi, ma'lum tartib-me'yorga soladi. Bu ishlar o'z navbatida ijodkor tomonidan amalga oshiriladi. Badiiy adabiyot borliqni, insonlar taqdirini o'zining poetik obraz tizimiga bo'ysundirar ekan, ularni go'zallik, nafosat qonuniyatlariga ko'ra qayta yaratadi. Ya'ni badiiy obraz ijodkor uchun fikrlash vositasi hayotiy voqelik ta'sirida paydo bo'lgan kechinma tasvirini berishdagi muhim omil sanaladi.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy she'riyat takomilining ijtimoiy va adabiy-estetik asoslari o'rganilmoqda. She'riyatimizning yangilanish tamoyillarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ko'z oldimizda shoir qalamga olgan inson obrazi, jonivorlar obrazi, tabiat obrazi, narsa-buyumlar obrazi dunyoni va insonni mukammal ko'rish orzusida yashagan shaxs armoni, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchlari, hasrat-u umidlari bilan gavdalanadi.

Usmon Azim nazmiy me'rosini o'rganish adabiyotshunoslikning ustuvor vazifasidir. Chunki poetik mazmunni yangilashga qodir ijodkor va ijtimoiy-adabiy muhit munosabatlari muayyan milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim adabiy-estetik omildir. Ushbu ilmiy muammoning adabiyotshunoslikda o'rganilishi jarayonida alohida diqqat qaratish lozim bo'lgan masalalar bor. Bunda, albatta, adabiy muhitning ko'lami va

¹⁴ Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, 1975. – С. 22.

¹⁵ Akramov B. She'riyat gavhari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashryoti, 1979. – B. 7.

chegarasi bilan bog'liq masalalar nazarda tutilmoqda. Gap shundaki, mohir ijodkor asarlarining ta'sirlanish hududini faqat u yashagan zamon, qadami yetgan makon, shuningdek, tilning tushunarliklik omillari bilan chegaralash maqsadga muvofiq emas. Usmon Azim ijodi oddiy gaplarning kutilmagan sana'tkorona ifodasi bilan o'zgacha. "Bu kecha qanaqa" deb boshlanuvchi she'rida "chiroq yondi deb aytish mumkin bo'lgan oddiy gapni "Simyog'ochga shoshib tirmashdi chiroq" tarzida, yana bir boshqa she'rida esa o'z mahbubasini

Yuragimda tiniq yoshsiz,

Yillar qo'yolmas artib, - deydi

Yoki bir she'rida "umid yo'qolmoqda" – degan odatiy gapni:

Qaylarda yurib sargardon umid

Qay zulmat dardida berayapti jon?

-tarzida aytsa boshqa bir o'rinda:

Tashqarida asfalt ustida

Behush yotar sovuq dekabr! – deydi.

Shu va shunga o'xshash ifodalar "Kuz" to'plamida juda ko'p. Quyida biz e'tiboringizga ulardan ba'zi na'munalarni havola etamiz va badiiy olamini mushohada etamiz.

Kuz yo'q. O'rindiqlarda – chorbog'da bu choq

Mung'ayib o'tirar qarigan bahor. (tashbeh, tazod)

Terak osmonni artar

Kuz selida chayqalib (tashbeh)

Dashtda sag'irdir qo'rqinch

Dashtda – ko'ylakchan hayot (tashbeh)

Boshimizga zilday ko'kni ag'darib

Qaro yerga o'zin ko'mdimi quyosh?

Bir parcha olovni shunday ko'tarib

Zulumotga qarshi chiqdi simyog'och (tashbeh)

Sho'rlik davralarda podshohlik sezdim

Bechoralik sezdim ulug' shohlarda (tazod)

Jim –jit baqirdim. (tazod, urg'u)

Odamlar –kichkina-chumoliday –

Vaqtning tayoqlari tagida –uvol. (jonlantrish, giperbola)

Laylilanib yog'adi

Layli qor-u laylakqor. (L harfli aliteratsiyasi)

Yulduzgulli ko'ylagin yechar

Osmon –she'rlar chatnagan rukn. (tashbeh)

Do‘stlar davrasida qizidi suhbat,
Mehrning gulxani o‘rtada yondi (tashbeh)
Ariqlarda oqib borar oy –
Ariq borar ko‘tarib fonus.
Oydin tunda kechganicha loy,
Pishqirmasdan suv ichar poliz. (jonlantrish)
Majnunlanib yog‘adi
Mayda qor-u mangu qor. (m harfidan aliteratsiyasi)
Uyning ko‘lkasida
Erimadi qor,
Bir parcha soyadan
Ketolmadi qish(tashbeh)
Uy so‘ngida bitta chuqur “uh”-
Turmush sari bosh egib yurmoq
Yurak tuzar dunyo bilan sulh
Sulh tuzganday kuz bilan yaproq. (parallelizm)
Qayda chiroq yonsa tevaragida
Qur tashlab o‘tirar kecha
Bahorgi maysani to‘shab tagiga
Sukutli yonboshda olmoqda orom (jonlantrish)
Orzung ertaklarning cho‘ntaklarida (jonlantrish)
Ruh labidan baxt olar bo‘sa. (jonlantrish)

O‘zini Vatan, yurt ravnaqi uchun hissa qo‘shishga chog‘langan ijodkorlar millat fidoiysi bo‘lish bilan birga, milliy adabiyotni yuksaltirish orqali o‘z xalqini umumjahon miqyosiga olib chiqishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan. Har bir ijodkor badiiy tafakkuri darajasini o‘z davrining eng ilg‘or tendensiyalariga muvofiqlashtirishi zarur. Bunda u, albatta, o‘zi bilan bir davrda ijod qilayotgan jahon adiblarining yutuqlari va tajribalaridan unumli foydalanishi, kerak bo‘lsa, ular bilan o‘zaro muhohasaga kirishi taqozo etiladi. Biroq bu o‘rinda shuni nazarda tutmoq zarurki, “Adabiy ta’sir yoki komparativistika jarayoni har bir millat adabiyot doirasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi”¹⁶.

Ma’lumki, lirik kechinma orqali kitobxonda yuzaga keladigan ruhiy hayajon to‘lqinlari bevosita shoir yaratgan, o‘ylab topgan poetik obrazda o‘z ifodasini topadi. O‘quvchida paydo bo‘lgan, bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan ruhiy kayfiyat ijodkor yaratgan poetik tasvirning haqqoniyligi, yorqinligi, betakrorligi bilan izohlanadi.

¹⁶ Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afor G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 234 – 235.

Lekin bunday obrazlarning yaratilishi o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Qachonki jodkor voqelikdan ta’sirlanar, tuyg‘ulari jo‘sh urar, o‘sha voqelikka hissiy munosabati shakllanar ekan asarda poetik obraz tug‘iladi. Shoirni qiynagan muammo uning qalbida sintezlanadi, tuyg‘ularini tartibli tuzilishi bilan bog‘liq jarayondir. Demak, tuyg‘ularning borliqqa munosabati lirik kechinmani hosil qilgani holda, kerakli, eng ma’qul obrazning paydo bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, 1975. – С. 22.
- 2.Akramov B. She’riyat gavhari. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashryoti, 1979. – B. 7.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 234 – 235.
4. Usmon Azim.”Bir parcha osmon”.Toshkent: “Factor books”, 2022.-6 b
- 5.Раҳимжонов, Н. Замонавий ўзбек шеърляти тараққийти. Тошкент: Адабийт, (2020).
6. Каримов, Б. (2019). Усмон Азим шеърлятида миллий рух. Тошкент: Фан

References:

1. Bakhtin M.M. Questions of literature and aesthetics. Moscow, 1975. – P. 22.
2. Akramov B. The gem of poetry. – Tashkent: Literature and art publishing house, 1979. – P. 7.
3. Jo‘raqulov U. Issues of theoretical poetics. – Tashkent: Ga‘fur G‘ulom National Institute of Modern and Contemporary Art, 2015. – P. 234 – 235.
4. Usman Azim. “A piece of sky”. Tashkent: “Factor books”, 2022.-6 p
5. Pakhimjonov, N. The development of modern Uzbek poetry. Tashkent: Literature, (2020).
6. Karimov, B. (2019). The national spirit in the poetry of Usman Azim. Tashkent: Fan